TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLARNING O‘RNI

Mamatmurodov Oybek Kamol o‘g‘li
Termiz davlat pedagogika instituti
Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi
Ismoilova Bahor Eshdavlat qizi
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim tizimi jarayonida dars sifatini oshirish, o’quvchilarning fikrlash, erkin mulohaza yurita olishini rivojlantirish maqsadida qo‘llaniladigan interfaol metodlar o‘rni, o‘quvchi hamda o‘qituvchi faoliyatiga ta’siri ko‘rib chiqildi. Shuningdek, ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etish to‘g‘risida fikr yuritildi. Interfaol metodlarning samaradorligi hamda afzalliklari Edgar Deylning “Tajriba konusi” nazariyasiga asoslangan holda tahlil qilindi. Metodlarning qo‘llanilish jarayonida yuz beruvchi muammolar to‘g‘risida tavsiyalar berildi.

Kalit so‘zlar: Interfaol metod, Edgar Deyl, “Tajriba konusi” nazariyasi, optimal yechim, kommunikativ ko‘nikmalar, Konfutsiy, kognitiv faollik, individual yondashuv, kreativlik; tanqidiy, ijodiy, mantiqiy fikrlash

Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan taraqqiyot, axborot texnologiyalari asrida ta’lim tizimida keskin o‘zgarishlar yuz berdi. Zamonaviy ta’lim tizimida tahsil olayotgan o‘quvchi yoshlarning axborotni qabul qilish tezligi va psixologik jihatdan yondashuvlari faqat ma’ruza darslariga asoslangan an’anaviy ta’lim jarayonlariga mos kelmay qolmoqda. Mazkur darslarda o‘quvchilar shunchaki tinglovchi bo‘lib qolsa, ularning o‘zlashtirish salohiyati va olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llash darajasi keskin pasayadi. Yuqoridagi sabablarni keltirgan holda, ta’lim samaradorligini

oshirishning eng maqbul yo‘li — dars jarayoniga interfaol ya’ni hamkorlikdagi metodlarni joriy etish detish mumkin. Interfaol metodlar hamda yondashuvlar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ikki tomonlama muloqotni mustahkamlaydi, ta’lim oluvchini ushbu jarayonning markaziga aylantiradi.

Interfaol metodlar ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim pedagogik hamda psixologik ahamiyatga egadir. Mazkur metodlar nafaqat darsni qiziqarli tashkil etish vositasi, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, mulohaza yurita olishi, kommunikativ ko‘nikmalarini hamda ijodiy yondashuvini rivojlantiruvchi zamonaviy pedagogik tizim hisoblanadi. Konfutsiyning “Eshitdim — unutdim, ko‘rdim — eslab qoldim, bajardim — tushundim” degan fikri bugungi interfaol ta’lim jarayonining asosiy mazmunini ifodalaydi. Negaki, interfaol metodlar o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirib, ta’lim jarayonining markaziy sub’ektiga aylantiradi. Interfaol metodlarning asosiy afzalliklaridan biri o‘quvchilarda kognitiv faollik va bilim olishga bo‘lgan qiziqishni oshirishidir. Bu kabi darslarda o‘quvchilar faqatgina ma’lumotni qabul qiluvchi emas, balki mustaqil izlanuvchi, tahlil qiluvchi va ijodiy fikrlaydigan shaxs sifatida yuksalib boradi. Shuningdek, guruhlar bilan birgalikda ishlash orqali o‘quvchilarda nutq madaniyati, o‘z fikrini dalillarga asoslangan holda yoritib bera olish, boshqalarning fikrini tinglash va hurmat qilish, jamoaviy muloqot ko‘nikmalari shakllanadi. Shu o‘rinda aytish mumkinki, interfaol metodlar nafaqat individual yondashuvni ta’minlaydi, balki har bir o‘quvchining salohiyati, qobiliyati va yetakchilik xususiyatlarini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Mazkur metodlarning samaradorligi taniqli professor Edgar Deyl tomonidan ishlab chiqilgan “Tajriba konusi” nazariyasi orqali ham asoslanadi. Amerikalik pedagog olim Edgar Deyl 1900–1985-yillarda yashab ijod qilgan bo‘lib, audio-vizual ta’lim texnologiyalari hamda o‘qitish metodikasi rivojiga katta hissa qo‘shgan. Uning “Tajriba konusi” (“O‘qitish piramidasi” deb ham ataladi) modeli inson axborotni qaysi usul orqali qabul qilsa, uni qanchalik samarali eslab qolishini asoslab bergan nazariya

hisoblanadi. Ushbu modelda o‘qitish usullari passiv va faol metodlarga ajratiladi. Nazariyaga ko‘ra, oddiy matn yoki kitob o‘qilganda ma’lumotning taxminan 10 foizi, ma’ruza yoki audio tinglanganda 20 foizi, rasm va diagrammalar ko‘rilganda 30 foizi esda qoladi. Video, film yoki tajribalarni kuzatish kabi ko‘rish va eshitishga asoslangan metodlarda esa o‘zlashtirish darajasi 50 foizga yetadi. Interfaol metodlar qo‘llanilganda esa samaradorlik yanada ortadi. Jumladan, jamoaviy bahs-munozaralarda ishtirok etish orqali bilimning 70 foizi, amaliyotda qo‘llash va boshqalarga o‘rgatish orqali esa 90 foizgacha qismi xotirada saqlanib qoladi. Deylning asosiy g‘oyasiga ko‘ra, o‘quvchi ta’lim jarayonida qanchalik faol qatnashsa, o‘zlashtirilgan bilim shunchalik mustahkamlanadi.

O‘quvchilarning bilim olish jarayonidagi faolligini oshirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda dars samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan metodlarga “Aqliy hujum”, “Klaster”, “BBB” kabilarni keltirib o‘tishimiz mumkin. “Aqliy hujum” metodi dars jarayonida muayyan muammo yoki savol yuzasidan o‘quvchilarning erkin ravishda o‘z fikrlarini yoritib bera olishiga asoslanadi. Ushbu metodning asosiy maqsadi qisqa vaqt ichida ko‘plab fikr va g‘oyalarni yig‘ish hamda ular orasidan eng optimal yechimni tanlashdir. “Aqliy hujum” o‘quvchilarda ijodiy jihatdan fikrlash, erkin mulohaza yuritish hamda ma’lum muammoga turli nuqtai nazardan qarab, to‘g‘ri yechim berish ko‘nikmalarini shakllantiradi. “Klaster” metodi esa ma’lumotlarni tarmoqlar orqali guruhlarga ajratish va ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu metodda bosh tushuncha markazga yozilib, unga bog‘liq fikr va g‘oyalar asosiy tushunchaga bog‘liq ravishda tarmoqlarda ifodalanadi. Natijada o‘quvchilar mavzuni yaxlit holda o‘zlashtirib, ma’lumotlarni mantiqiy jihatdan tartibga solishni o‘rganadilar. Ayniqsa, katta hajmdagi mavzularni soddalashtirishda “Klaster” metodi qo‘l keladi

Ta’lim tizimida keng qo‘llaniladigan metodlardan yana biri “BBB” jadvali hisoblanadi. Ushbu metod uch bosqichdan iborat bo‘lib, “Bilaman”, “Bilishni

xohlayman” va “Bilib oldim” qismlarini o‘z ichiga oladi. Dars boshida o‘quvchilar mavzu yuzasidan avval o‘zlashtirgan bilimlarini yozadilar, keyin esa bilishni istagan savollarini ifodalaydilar. Dars so‘nggida esa yangi o‘zlashtirgan ma’lumotlarini qayd etadilar. Bu usul o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash, qiziqishini oshirish va o‘zlashtirish samaradorligini baholash imkonini yaratadi. Shuningdek, “Baliq skeleti” hamda “Venn diagrammasi” nomli interfaol metodlar ham keng ko‘lamda qo‘llanilib kelinmoqda. “Baliq skeleti” metodidan asosan muammolarning sabab va oqibatlarini aniqlashda foydalaniladi. Ushbu metodda asosiy muammo baliqning bosh qismida ifodalanib, unga olib keluvchi sabablar esa skelet ko‘rinishida tasvirlanadi. Mazkur usul o‘quvchilarning tanqidiy, tahliliy va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ayniqsa, muammoli va murakkab mavzularni chuqur tahlil qilishda ushbu metod samarali natija beradi. “Venn diagrammasi” metodidan esa ikki yoki undan ortiq tushunchalarning o‘xshash va farqli jihatlarini taqqoslashda foydalaniladi. Ushbu metod o‘quvchilarning erkin mulohaza yuritishini rivojlantirib, mavzularni chuqurroq tushunishga, tahlil qilishga yordam beradi.

Interfaol metodlarning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, ularni amaliyotga joriy etishda ayrim muammolar ham uchraydi. Xususan, 45 daqiqalik dars davomida interfaol metodlarni to‘liq tashkil etish qiyinchilik tug‘diradi. Bundan tashqari, barcha pedagoglar ham dars jarayonida nazoratni saqlagan holda boshqarish ko‘nikmasiga ega emas. Erkin bahs-munozara va muloqotlar davomida sinfdagi tartib-intizomning buzilishi ehtimoldan yiroq emas. Shu sababli interfaol metodlarni ta’lim jarayonida tizimli joriy etish uchun o‘qituvchilarning tobora rivojlanib borayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarini muntazam ravishda oshirib borish muhim hisoblanadi. Dars jarayonida vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, guruh ishlarini puxta rejalashtirish va o‘quvchilarning yosh hamda psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashish interfaol ta’lim samaradorligini yanada yuksaltiradi.

Umuman olganda, interfaol metodlar zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarni kelajakda yetuk shaxs, bilimli kadr sifatida shakllantirishning muhim omili sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, interfaol metodlar zamonaviy ta’lim samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu metodlar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va darsdagi faolligi rivojlanadi. Ayniqsa, o‘quvchini ta’lim jarayonining markaziga olib chiqishi interfaol metodlarning asosiy ustun jihatlaridan biridir. Shu bilan birga, zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan interfaol ta’lim usullari bilimlarni samarali o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlardan to‘g‘ri va maqsadli foydalanish natijasida ta’lim sifati oshib, raqobatbardosh hamda kreativ fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UMUMIY PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA AMALIYOTI. B.X.Xodjayev. “Sano-standart” nashriyoti. Toshkent – 2017
2. MUKAMMAL XOTIRA. Shohruh Mirzo Rahmonov. Toshkent “Akademnashr” 2020
3. “Pedagogik ta’lim jarayonida interfaol metodlarni va vositalardan foydalanishning pedagogik muammo sifatida” Ibotova Dildora Shomirovna
4. Hasanovich, O. T. (2024). ILMIY TADQIQOT ISHI BILAN SHUG’ULLANUVCHILARDA PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH KO ‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH.
5. PEDAGOGIK TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI. B. Xodjayev, A. Choriyev, Z. Saliyeva. Toshkent. “IQTISODIYOT DUNYOSI” 2018